

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7799183>

Alisher Allabergenov

*Qoraqalpoq Davlat universiteti ilmiy rahbari*

*pedagogika fanlari bo'yicha*

*falsafa doktori: J. Asamatdinova*

**Резюме:** *Ushbu maqolada o'smirlilik davrida yuz beradigan tezlashish ya'ni akseleratsiya jarayonining qanday kechishi, paydo bo'lishi ijobiy va salbiy tomonlari to'g'risida yozilgan.*

**Kalit so'zlar:** *Akseleratsiya, Urbanizaciya, Nutritiv Geterozis Kosmik nurlanish, Geterozis o'smir kamoloti*

**Резюме:** В данной статье написана аннотация о положительных и отрицательных сторонах акселерации, возникающей в подростковом возрасте, то есть о том, как происходит процесс акселерации.

**Ключевые слова:** Ускорение Урбанизация, Питательный Гетерозис Космическое излучение Гетерозис

**Резюме:** are written in this article about the positive and negative aspects of the acceleration process that occurs during adolescence. are written in this article about the positive and negative aspects of the acceleration process that occurs during adolescence.

**Keyd words:** acceleration Urbanization, Nutritive Heterosis Cosmic radiation Heterosis

Zamon rivojlangan bugungi kunda ilm ham bir qancha rivojlanmoqta. Bu jarayon faqat jahonda emas, yurtimizda, jamiyatimizda ham keng turda amalga oshirilmoqda, shu bilan birga psixologiya yo'naliishida bir qancha muammolar ilm tadqiqot talab qilib turganligi sir emas. Shular qatorida yosh avlodda bugungi kunda eng ko'p ushrayotgan jarayonlarning biri bu akseleratsiya muammosi hisoblanadi. Sababi bugungi kunda jamiyatimiz o'smirlari oldingi davrdagi o'smirlarga qaraganda bir qancha oldinga ilgarilab ketganligi ko'zga tashlanmoqta. Bu jarayon hozirgi kundagi aktual jarayonlarning biri hisoblanadi. Akseleratsyaning qachon paydo bo'lganligi va ilmiy termin sifatida qachondan qo'llanila boshlaganligi va kelib chiqish sabablari to'g'risida aytib o'tamiz.

XIX asr oxiri, XX asr boshlarida ko'p mamlakatlarda bolalar bo'yining ósishini tez aniqlagan va bu haqidagi tavsifnomalar 1876-yilda axborot kommunikatsiya qurollarida joriy etilgan. 1935-yilga kelib nemis olimi O.Kox rivojlanishdagi bu tezlashishni akseleratsiya deb atagan. Akseleratsiya - lotincha so'z bo'lib celes- tezlashish degan ma'noni anglatadi. Akselaratsiya yosh avlodning oldingi tengdoshlariga qaraganda ruhiy va jismoniy tarafdan tez rivojlanishidir. Akseleratsiya 100 yil, ya'ni bir asr ichida aniq ko'zga tashlanganligi uchun uni keng ma'noda "sekulyaoniy trend" ya'ni "Asrlik tendensiya" deb ataladi. Keyingi 100-150 yil ishida Yer yuzida akseleratsiya jarayonlari kuzatiladi. Shu jumladan bizning yurtimizda ham kuzatilmoqda.

Rivojlanishdagi akseleratsiya deganda, insonning biologik rivojlanishiga bog'liq barcha o'zgarishlarni tushunish kerak. Bunga insonning morfologik va funksional rivojlanishini

tushuntiradigan bir qancha natijalar kiradi. Bu o'zgarishlar ma'lum bir ijtimoiy atrofda yuz beradi va ko'pchilik tomondan ijtimoiy sabablar bilan belgilanadi.[1.39-40b]

O'smirning aqliy kamoloti. O'smirlarning jismoniy o'sishi va jinsiy yetilishi ularning psixikasida keskin o'zgarishlarni vujudga keltiradi. O'quv fanlarining ko'payishi, axborotlar, tarmog'ining kengayishi ularning fikr yuritishini jadallashtiradi. Kichik maktab yoshidagi bolalarda endigina rivojlanish bosqichiga ko'tarilgan intellekt o'smirlik davrida yanada takomillashadi. Ta'lif jarayonida ularda materiallarni tahlil va sintez qilish, muammoning mohiyatiga tushunish jadal sur'atlar bilan o'sadi. Tafakkurning rivojlanishi intellektni qo'shimcha ma'lumotlar bilan boyitadi.[3,9 b]

Inson rivojlanishining tezlashganligini tastiqlash uchun sabab bo'lgan o'zgarishlar quyidagilardan iborat. Oxirgi o'n yillar ichida bolalarning tez rivojlanishini tushuntirish uchun bir qator nazariyalar taklif qilingan.

Tezlashish muammosi jismoniy rivojlanish tendensiyalari tog'risidagi tavsifnomalarni analiz qilish akseleratsiya (tezlashtirilgan jismoniy rivojlanish) va kechikish (kechiktirilgan jismoniy rivojlanish) tushunshalarini ishlab chiqish uchun sabab bo'lib xizmat qildi. Akseleratsiya (lotinsha akseleratsiya- tezlashtirish) - oldingi avlodlar bolalarining jismoniy rivojlanishini tezlashtirish. Bu konsepsiya 1935-yilda nemis gigienisti Kox tomonidan kiritilgan. Akseleratsiya jarayonlari XX asrning ikkinchi yarmida aniq ko'rindi. Tezlashishning sababları aniq emas. Tezlashishning ilgarlashi haqida turli gipotezalar bor. Rossiya meditsina fanlari akademiyasining akademigi Yu.P.Lisitsin tezlashishga ta'sir etuvchi quyidagi faktorlarni aniqladi. Jismoniy – ximiyalik faktorlar:

- Geliogenlik(quyosh radiatsiyasining ta'siri)
- Radio to'lqinlar, magnit (magnit maydoni ta'siri)
- Kosmik nurlanishi;
- Karbonat angidrit konsentratsiyasining o'sishi;
- Alovida hayot faktorlari;
- Ovqat hazm qilish;
- Tavsifnoma;
- Ijtimoiy-biologik;
- Urbanizaciya;
- Genetik faktorlar;
- Sikillik biologik o'zgarishlar;
- Geterozis (populyalarning aralashishi)

Biroq, bu va boshqa faktorlarning umumiyligi bir biriga ta'siri tezlashishning kelib shiqishida zarur ahamiyatga ega ekanligiga shubha yo'q. Tezlashishni ijobiy yoki salbiy jarayon sifatida aniq ko'rib chiqish mumkin emas. Sababi bu jarayon insonlar va jamiyat rivojlangan sari ko'zga tashlana boshladi, har bir ishning foydali va zararli tomonlari bo'lganidek akseleratsiya jarayoni bir tomondan inson uchun foydali bo'lsa, ikkinchi tomondan zararli hisoblanadi. Nima uchun bunday akseleratsiya jarayoni davrida o'smir jadal tarzda rivojlanib borayatgan bo'lishi mumkin, biroq uning atrofidagi o'smirlar bilan fikrlashish darajasi tog'ri kelmasligi mumkin. Sababi yosh o'smir akseleratsiya yuz berayotgan davrda tengdoshlaridan bir necha yosh ilgari fikrlay boshlaydi. Bu degani tengdoshlari bilan kelishmovchiliklarni keltirib chiqarishi mumkin. Yuqorida aytganimizdek akseleratsiya jarayonining farqlari

ahamiyatli faktorlarni ko'rsatmoqta. Oddiygina qishloq va shaharda turuvchi qiz bolalarda jinsiy yetuklik 2-3 yilga farq qilishini olimlar isbotlab berishga harakat qilgan. Bu ham bir akseleratsiyaning ko'rinishi hisoblanadi. Sababi shaharda yashovchi yoshlar ko'proq informatsiyaga ega bo'lishi hozirgi zamон talabi internet bilan keng turda bog'lanish imkonini beradi. Shu sababli ularda rivojlanish darajasi yuqori bo'ladi.

Yoshlik va yetuklik mezonlari har xil vaqtida har xil ta'riflangan. Masalan, qadimgi mualliflar hayotiy siklni yil fasllari o'xshashligi bo'yicha ajratganlar. Pifagorning fikricha, bolalik va yoshlikni qamrab olgan "bahor" 20 yil, "yoz" 20-40 yil, hosildor yetilganlik "kuz" esa 40-60 yil davom etgan. Solon hayotni o'nta "yettiliklar"ga bo'lgan, unda o'smirlik 14 yoshdan boshlangan, jismoniy kuchning gullab-yashnashi 21-28 yoshga to'g'ri kelgan, aql esa 28-42 yoshda to'liq yetilgan.

O'smir kamolotga erishgan sari uning psixik dunyosida yangi fazilatlar va yangi o'zgarishlar paydo bo'la boshlaydi, psixikasida keskin yangi o'zgarishlar kuzatiladi. O'zgarishlar uning oldiga yangi maqsadlar qo'yadi, bu esa, o'z navbatida ko'proq huquq va erkinlik berishni talab qiladi, eng avvalo mustaqil qarorga kelish va o'z xulq- atvorini ma'qul kóradi.

Hozirgi kunga qadar o'smirlik davrida jinsiy yetuklikning jadal rivojlanishi bo'yicha bir butun nazariya yaratilmagan. Shuning uchun o'sishdagi jadallahish, ya'ni akseleratsiya bo'yisha nazariya yaratilmagan.

Ana shu sababdan har xil ilmiy, bir biridan farqli holda bir qator ilmiy nazariyalar paydo bo'ldi. Quyidagi akseleratsiya bo'yicha bir qator olimlarning ko'z qarashlarini kórib chiqamiz.

Geliogen nazariya. Bu nazariya 1936-yilda chet el olimlari tomonidan yaratilgan bo'lib, uning asosiy ma'nosi akseleratsiya jarayoni quyosh nurining uzlusiz ta'siri natijasida yuzaga keladi degan ideani ilgari suradi. Bu ideal tarafdarlarning fikricha, bolalar ko'p vaqt quyoshda yurishining sababidan ularning o'sishida ya'ni rivojlanishda akseleratsiya yuz beradi. Sababi quyosh nuri organizmni zarur elementlar bilan ta'minlaydi.[2,183]

Urbanizatsiya nazariyasi Jamiyat rivojlanishida shaharlar rolining ortishi shu nazariyaning paydo bo'lishiga asos qilib olingan. XIX asr o'rtalarinan boshlab qishloq turg'unlarining shaharga ko'chishi kuchaydi va xalq orasida migratsiya yoki urbanizatsiya yuzaga keldi. Shaharning turli shart-sharoitlar bilan ta'minlanganligi, turli texnologiyaning rivojlanganligi bilan u yerdagи o'simrlar ertaroq, ya'ni jadal rivojlanishiga sabab bo'ldi. Qishloq turg'uni bilan shahar turg'unlarining yaqinlashishi akseleratsiya masalasiga ijobiy ta'sir qildi. Biroq bu jarayon, tog'ridan tog'ri akseleratsiya jarayoniga sabab bo'la olmaydi.[2,184B]

Nutritiv nazariya Bu ideaning tub ma'nosi o'sishdagi jadallahish (akseleratsiya) insonlarning ovqatlanishining yaxshilanishi iste'mol qilayotgan oziqlarda dori darmonlar mug'dorining ko'payishi sababidan yuzaga keladi. Bu idea yaratuvchilarining fikricha B-6 B-12 darmon dorilari kislotosidan insonlarning ko'proq iste'mol qilishi akseleratsiya jarayoni sababidan hisoblanadi. Tabiiy inson o'sishining jadallahishida dori darmonlar ma'lum darajada ijobiy ta'sir etishi mumkin, biroq bu faktlar akseleratsiya uchun asos bo'la olmaydi. Biroq akseleratsiya uchun ma'lum asos vazifasini otaydi.

Nurlanish nazariyasi Bu nazariya tarafdarlarning fikricha Yer yuzida rentgen qurilmalarining ko'payishi, atom, vodorod va neytron bombalarining portlashi natijasida insonda radioaktiv elementlar, radiatsiya nurlarining ortishiga sabab bo'ladi va jadal

rivojlanishga sabab bo'ladi.Yer yuziga tarqalgan nurlar insonning jadal rivojlanishiga ya'ni akseleratsiyaga sabab bo'ladi.Ma'lum normadan ortiq rentgen nurlari insonga haddan ziyod zarar keltiradi, biroq nurlanishda insonning tana a'zolarining rivojlanishiga imkon yaratadi. Hatto chaqmoq nurlari, hatto paydvantlashning yoriqlik nurida inson jadal rivojlanishga sabab bo'ladiganligi aytilgan.Lekin bu tog'ridan tog'ri akseleratsiya jarayoniga sabab bo'la olmaydi[2,184b]

Tarixiy jihatdan tezlashuv jarayonini kuzatish juda qiyin, chunki o'tgan asrlarda yashagan avlodlarning jismoniy rivojlanish ko'rsatgichlari bo'yicha ishonchli ma'lumotlar yo'q. Shuning uchun xulosalar faqat bevosita ma'lumotlar asosida amalga oshirilishi mumkin.

Ma'lumki, tezlashuv jarayonlari sikillik bo'lib, qisqa muddatli barqarorlashuyga ega. Shunday qilib, XX asrning 80-yillarida akseleratsiya jarayonlarini barqarorlashtirishga oid ilmiy ma'ruzalar paydo bo'la boshladi, ular asosida 21-asrda bir qator rivojlangan mamlakatlarda ham deb taxmin qilish mumkin. Jismoniy rivojlanish jarayonlarida sekinlashuv - kechikish kuzatiladi, shu bilan birga, rivojlanayotgan mamlakatlardagi kabi akseleratsiya siljishlari davom etishi kutilmoqda. Bu akseleratsiya muammosini aniqlash uchun ko'proq ilmiy taqqiqotlar ishlari samarali tarzda olib borilsa uni o'rganishda qiyinchiliklar unshalik ko'zga tashlanmaydi va bu akseleratsiya muammosi ham o'z yechimini topadi. Akseleratsiya muammosini aniqlash bo'yicha shaxsiy fikrim yuqorida keltirilgan faktorlardan kelib chiqib o'smirlarda shahar va qishloq o'smirlaridan ekperiment o'tkazib yuqardagi faktlar asosida natijalarini tahlil qilish kerak dep hisoblayman. Shu jarayon orqali bizda akseleratsiya muammosini aniqlash imkoniy paydo bo'ladi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

- 1.Yosh fiziologiyasi va gigienasi Q Sodiqov Sh Aripova .G.A.Shahmurova Toshkent yangi nashir 2009y
- 2.Ergash Goziev ontogenez psixologiyasi "Noshir" Toshkent 2010y
- 3.Yosh va pedagogik psixologiya Yo Jumanazarov (muommoli maruzalar matni) 2009 y